

UMUMTA'LIM MAKTABLARI 5-8-SINFLARI UCHUN

“KELAJAK SOATI” DARS SSENARIYSI

13-mavzu: “Biz bolalarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshimiz!”

Dars sanasi: 2025-yil 24-noyabr

Annotatsiya

Ushbu mashg‘ulot zo‘ravonlik tushunchasi, uning turlari va oqibatlarini anglash hamda ularning oldini olish yo‘llarini ko‘rsatishga qaratilgan. Dars interaktiv usullarda – videorolik, guruhli muhokama, kartochkalar, case-study va milliy maqollar orqali olib boriladi.

Dars maqsadlari

Maqsad:

Bolalarda zo‘ravonlikka nisbatan salbiy munosabatni shakllantirish, ularni bag‘rikenglik, o‘zaro hurmat, ahillik, madaniyatli muomala va tinchlikparvarlik kabi insoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash.

Aniq maqsadlar:

- Zo‘ravonlik va bulling tushunchasi, ularning turlari bilan tanishtirish;
- Bag‘rikenglik va madaniyatli munosabat nima ekanini tushuntirish;
- Hayotiy misollar keltirgan holda zo‘ravonlikning salbiy oqibatlarini muhokama qilish;
- O‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro hurmat va do‘stona munosabatni mustahkamlash;
- Yordam so‘rash, muammoni tinch yo‘l bilan hal qilish usullarini o‘rgatish;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi haqida tushuncha berish. Agentlikning missiyasi – professional ijtimoiy xizmat va ijtimoiy yordam ko‘rsatish ekanligini tushuntirish.

- Qonunchilik asosida bolalarning huquqlari himoya qilinishi haqida ma'lumot berish.

Vazifalar

- Zo'ravonlik – bola sha'niga va huquqlariga tajovuz.
- Zo'ravonlik – muammolarni hal qilish usuli emas.
- Har bir bola himoya va hurmatga loyiq.
- Bag'rikenglik – tinch va sog'lom jamiyatning asosidir.
- Madaniyatli muomala – o'quvchining chiroyli axloqini ko'rsatadi.

Darsdan kutiladigan natijalar

1. Aqliy darajada:

- “Zo'ravonlik” va “bulling” tushunchasini izohlay oladi.

2. Hissiy darajada:

- Zo'ravonlik qurboni hissiyotlarini angelaydi.

3. Amaliy ko'nikmalar:

- Zo'ravonlikka duch kelgan vaziyatda kimdan yordam so'rash va qanday murojaat qilish yo'llarini kamida 2 ta misol bilan ayta oladi.

4. Ijtimoiy jihatdan:

- Zo'ravonlikka qarshi qonunchilikda ko'zda tutilgan choralardan xabardor bo'ladi.
- Yaxshilik, ahillik va odamiylik g'oyalarini angelaydi.

Metapredmet

- **Ona tili va adabiyoti:** zo'ravonlikka qarshi maqol va hikmatlarni muhokama qilish.
- **Huquqiy bilimlar:** inson huquqlarini himoya qiluvchi qonunlar haqida tushuncha.

- **Ijtimoiy fanlar:** jamiyatda tinch-totuv yashash ehtiyojini shakllantirish.

- **Tarbiya:** o'ziga ishonchni shakllantirish, yordam so'rash ko'nikmalarini o'rgatish.

Dars hamkori: O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi.

Dars davomiyligi: 45 daqiqa

Tavsiya etilgan shakl: **interaktiv** (suhbat, guruhda muhokama, kartochkalar, videorolik namoyishi).

Materiallar to'plami: ssenariy matni, ijtimoiy videorolik, vaziyat kartochkalari, flomaster, marker, varaqlar.

Darsning borishi.

KIRISH. Ma'lumot berish va motivatsion qism (5 daqiqa)

O'qituvchi:

Assalomu alaykum, aziz o'quvchilar! Bugun darsni kichkina bir **tasavvur o'yini** bilan boshlasak.

Ko'zlaringizni yuming...

Bir lahza tasavvur qiling: maktabga kelyapsiz. Quyosh charaqlayapti, havo yoqimli. Siz xursand bo'lib sinfga kirdingiz. Ammo... kimdir sizni shu onda masxara qildi. Yoki yoningizdan o'tib ketayotib turtib yubordi. Yoki telefoningizga yuragingizni siqib yuboradigan qo'rqituvchi xabar keldi.

Endi ko'zlarni oching.

Savol: O'zingizni qanday sezgan bo'ladingiz?

(Javoblar eshitiladi.)

Aynan mana shu "yoqimsiz his", ko'ngildagi g'ashlik zo'ravonlikning birinchi belgisidir. Zo'ravonlik ko'pincha shunday sekin, mayda holatlardan boshlanadi. Lekin uning oqibatlari og'riqli bo'lishi mumkin.

Bugun biz aynan shu *ko'rinmaydigan, ammo odamning dunyosini o'zgartirib yuboradigan* holat haqida gaplashamiz.

Ba'zan zarba qo'l yo oyoq bilan emas, balki *so'z, kulgi-masxara, ijtimoiy tarmoqdagi izoh, sukut, e'tiborsizlik* bilan berilishi mumkin.

Bugun biz shu mavzu doirasida quyidagi savollarga javob beramiz:

- Zo'ravonlikning nechta ko'rinishi bor?
- Zo'ravonlik siz tengi bolalarga qanday ta'sir qiladi?
- Siz qanday qilib o'zingizni himoya qilishingiz va boshqalarga yordam berishingiz mumkin?

Bolalar, bilasizlarmi, mamlakatimizda har bir bolaning huquqlari, xavfsizligi va himoyasi qonun bilan kaolatlangan. Shu yili bolalar huquqlarini yanada kuchli himoya qiluvchi yangi qonun ham kuchga kirdi. Keling, shu qonun haqida Ijtimoiy

himoya milliy agentligi direktorining birinchi o‘rinbosari Shahnoza Mirziyoyevadan eshitamiz.

Vizual kontent

Shahnoza Mirziyoyeva Bolalarni himoya qiluvchi yangi qonun haqida gapirdi

<https://www.youtube.com/watch?v=qax2hGRAQgc>

Videorolik muhokama qilinadi (2 daqiqa)

ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O‘quvchilar:

Aziz o‘quvchilar! Ayting-chi, zo‘ravonlik nima?

O‘quvchilarning taxminiy javoblari: biror kishini urish, itarish, sochdan tortish, tepish yoki shapaloq tushirish, tahdid qilish, majburlash, masxara qilish, qoralash, kamsitish, so‘kinish, telefon yoki ijtimoiy tarmoqlarda qo‘pol yozishmalar, masxara qilish, birov tomonidan uzoq vaqt davomida qilinadigan tazyiq, ko‘pchilik bo‘lib bir kishiga bosim o‘tkazish.

O‘qituvchi:

Siz yoki do‘stlaringiz bilan shu kabi holatlar sodir bo‘lganmi? Kim aytib bera oladi?

O‘quvchilarning taxminan bir, ikkita keltirgan misollari eshitiladi va ularga qo‘shimcha savol beriladi:

Bu vaziyatga tushgan odamlarning holatini aytib bera olasizmi?(o‘quvchilarning javoblari tinglanadi)

O‘qituvchi:

Ko‘pincha odamlar “zo‘ravonlik” deganda aynan **bulling**ni nazarda tutishadi. Siz bulling haqida eshitganmisiz?

(O‘quvchilarning javoblari: Ha, yo‘q, bilmayman ...)

O‘qituvchi davom etadi:

Bulling nima?

Bulling – bu **takroriy, ataylab qilinadigan zo‘ravonlik** bo‘lib, kimnidir xo‘rlash, haqoratlash, kamsitish, turtki berish, ustidan kulish, internetda obro‘sga putur yetkazish kabi harakatlarni o‘z ichiga oladi.

Bullingning 4 asosiy turi bor:

1. **Jismoniy bulling** – turtish, mushtlashish, oyoq qo‘yish.
2. **Og‘zaki bulling** – haqorat, masxara, laqab qo‘yish.
3. **Ijtimoiy bulling** – guruhdan chiqarish, yolg‘izlantirish, gapga qo‘shmaslik.
4. **Kiberbulling** – telefon, internet orqali xo‘rlash, rasm-video tarqatish.

Quyidagi 4 ta qoidani yodlab oling va amal qiling.

1. Birovga kulgu bo‘lish hech qachon mardlik emas.
2. Har bir insonning ko‘nglini og‘ritish – million bo‘lakka ajralgan oynani sindirish bilan barobar: uni qayta tiklab bo‘lmaydi.
3. Sizning hazilingiz kimningdir uyiga yig‘lab qaytishiga sabab bo‘lishi mumkin.
4. Sukut – bullingni davom ettiradigan kuchdir.

Tengdoshlarini bulling qiluvchi bolalar bir kuni bu ishlaridan albatta uyalib qolishadi. Keling, shu haqida rolik tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Siz bulling haqida eshitganmisiz?

<https://youtu.be/ciGiSx8PIm0>

O‘qituvchi:

Nega odamlar boshqalarni kamsitadi?

O‘quvchilar (*taxminiy javob*): “O‘zini kuchli ko‘rsatmoqchi”, “Uyida muammo bor”, “Atrofdagilarning e‘tiborini qidiradi”, “O‘zi ham bulling qurboni bo‘lgan”.

O'qituvchi:

Ba'zan bullerlar o'zlarining ichki qo'rquvini, zaifligini yashirish uchun boshqaga hujum qiladi.

Unutmang:

- Har bir inson hurmatga loyiq.
- Biz boshqa o'quvchilarni kamsitmasak, maktab xavfsiz joyga aylanadi. Agar odamlar boshqa odamlarni kamsitmasalar, dunyo xavfsiz bo'ladi.
- Kamsitmaslik – bu kuchlilik belgisi.
- Bullingga qarshi turgan bola – haqiqiy yetuk va jasur o'quvchi.

O'qituvchi: Bolajonlar, bolalarga nisbatan zo'ravonlikning yana bir turi bor. Bu – majburiy mehnat. Ya'ni bolalarni ta'lim olish, o'ynash, dam olish yoki uxlash kabi zarur huquqlaridan mahrum qilib, buning o'rniga og'ir mehnat qilishga majburlash ham zo'ravonlikning bir turi hisoblanadi. Bir paytlar, siz tengi bolalar ayniqsa qishloq sharoitida maktabdagi darslarga yuborilmay, hammasi ommaviy ravishda paxta dalalariga va boshqa dala ishlariga jalb qilingan. Issiq suv va yaxshi sharoit bo'lmagan binolarda bir necha oylab yashab, dala ishlari bilan shug'ullanishga majbur qilingan. Ammo so'nggi yillarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning oqilona siyosati tufayli siz va siz kabi millionlab bolalar bunday majburiy mehnatdan qutuldi.

Lekin bilib qo'ying, har qanday mehnat ham majburiy mehnat hisoblanmaydi. Keling hozir majburiy mehnat va insonni tarbiyalaydigan foydali mashg'ulot o'rtasidagi farqni ko'rsatuchi video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Majburiy mehnat yoki foydali mashg'ulot?

<https://youtu.be/dTmtYay6lYk>

O'qituvchi: Ko'rdingizmi, bolalar, majburiy mehnat insonni insoniylikdan chiqaradi, foydali mashg'ulot esa, aksincha, sizning yetuk inson bo'lib tarbiyalanishingizga xizmat qiladi. Agar siz umuman jismoniy mehnat qilmasangiz, uyda oyingizga uy ishlarida qarashmasangiz, o'z dars qiladigan xonangiz yoki burchagingizni, maktabda sinf xonangizni yig'ishtirib

tozalamasangiz, bu yaxshilik emas, yomonlikka aylanib ketishi mumkin. Ya'ni endi siz boshqalarga, xususan, uyda ota-onangiz, opa-akalaringizga, maktabda esa farroshlar va o'qituvchingizga nisbatan yomonlik qilgan bo'lib qolishingiz mumkin. Shuning uchun, mehnat qilish kerak, ammo avvalo, bu sizning yoshingizga mos, ya'ni og'ir bo'lmagan mehnat bo'lishi lozim. Qolaversa, bunda sizning ta'lim olish, kuniga 8 soat uxlash, kitob o'qish kabi zarur huquqlaringiz buzilmasligi kerak.

O'qituvchi: Hurmatli o'quvchilar. Siz bugungi kunda majburiy mehnat va bolalar mehnatini ekspluatatsiya qilish nimaligini bilmaysizlar va bu yaxshi. Ammo ota-onalaringiz buni yaxshi bilishadi. Hozir bir videorolik tomosha qilamiz, unda ota-onangiz va sizning davringizda bolalar huquqlarini ta'minlashda qanday katta o'zgarishlar bo'lgani yaqqol ko'ringan.

Vizual kontent

“Bir qadam tashlang” – insta-trend

<https://youtu.be/3QXsymWmPKo?si=XF0X9Zyv48XZUKAQ>

O'qituvchi:

Bolalar! Hayotda zo'ravonlikning turlari ko'p. Siz ularning zo'ravonlik ekanini bilmasligingiz ham mumkin. Men hozir sizga uning turlarini sanab, ta'riflab beraman.

BMTning “Bolalar huquqlari to'g'risidagi Konvensiyasi” va O'zbekistondagi “Bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish konsepsiyasi”da bolalarga nisbatan zo'ravonlikning 6 turi quyidagicha belgilangan:

1. Jismoniy zo'ravonlik

Bolaning tanasiga og'riq yoki jarohat etkazish bilan bog'liq harakatlar.

Misollar: urish, turtkilash, shapaloq urish, qattiq jazolash, oziq-ovqat yoki uyqudan mahrum qilish.

2. Ruhiy (psixologik) zo'ravonlik

Bolaning hissiy holatiga zarar etkazish, uni tahqirlash yoki qo'rqitish.

Misollar: haqorat qilish, qo‘rqitish, doimiy tanqid, boshqalar bilan solishtirish, muhabbatni rad etish.

3. Jinsiy zo‘ravonlik

Bolani jinsiy harakatlarga jalb etish yoki jinsiy ahamiyatga ega harakatlar orqali suiiste‘mol qilish.

Misollar: tegish, jinsiy so‘zlar aytish, rasm yoki video orqali suiiste‘mol qilish, majburiy jinsiy aloqa.

4. Iqtisodiy zo‘ravonlik

Bolaning moddiy ehtiyojlarini qasddan ta‘minlamaslik yoki uni mehnat qilishga majburlash.

Misollar: bolani ishga majburlash, pul yoki oziq-ovqatni cheklash, ta‘lim yoki kiyim-kechakni ta‘minlamaslik.

5. Beparvolik (e‘tiborsizlik, parvarishdan voz kechish)

Bolaning asosiy ehtiyojlarini qondirmaslik – bu ham zo‘ravonlik turidir.

Misollar: ovqat bermaslik, tibbiy yordam ko‘rsatmaslik, ta‘limdan chetlatish, xatarli muhitda qoldirish.

6. Kiberzo‘ravonlik (Internet orqali)

Internetda bolani tahqirlash, shantaj qilish yoki aldov yo‘li bilan zarar etkazish.

Misollar: ijtimoiy tarmoqlarda haqoratli izohlar, yolg‘on ma‘lumot tarqatish, shaxsiy ma‘lumotlarni yoyish.

O‘qituvchi:

Endi birgalikda o‘ylab ko‘raylik: zo‘ravonlikka yoki bezorlikka (bullingga) uchragan odam o‘zini qanday his qiladi?

Guruhlarda ishlash – 1-qism

Sinf 4 guruhga bo‘linadi. Har bir guruhga 1 ta vaziyat beriladi. Ularning vazifasi – bu holatni o‘zaro muhokama qilish (2-3 daqiqa), keyin esa yechimni ham topish.

Sizlarning stolingizda turli soʻzlar yozilgan kartochkalar bor. Shu soʻzlardan zoʻravonlikka uchragan oʻsmir his qiladigan holatlarni tanlang. Shuningdek, boʻsh kartochkalarga siz qoʻshimcha ravishda zoʻravonlikka uchragan inson oʻzidan oʻtkazishi mumkin boʻlgan boshqa his-tuygʻularni ham yozib qoʻyishingiz mumkin.

(Kartochkalardagi soʻzlar namunasi: nafrat, qaygʻu, qoʻrquv, xotirjamlik, befarqlik, yomonlik, xafalik, oʻch olish, xavotir, asabiylik, uyalish, yolgʻizlik, qadrsizlanish, umidsizlik, charchoq, himoyasizlik, adolatsizlik, qahr, ishonchsizlik va boshqalar).

1- guruh. Sinfdagi masxara

Vaziyat: Jahongir har kuni yangi oʻquvchi Kamolni familiyasi bilan masxara qiladi. Boshqalar kulib, unga qoʻshiladi. Kamol jim turadi.

Savollar:

Bu zoʻravonlikning qanday turi?

Buning oqibatlari qanday boʻlishi mumkin?

Yaxshi yechimni taklif eting.

2- Guruh. Telefon orqali tahdid

Vaziyat: Madinaga nomaʼlum raqamdan tahdidli xabarlar kelmoqda. U qoʻrqib, hech kimga aytmayapti.

Savollar:

Bu qanday zoʻravonlik turi?

Bu zoʻravonlikning oqibatlari qanday boʻlishi mumkin?

3-guruh. Oʻyin vaqtida tajovuz.

Vaziyat: futbol oʻyinida Nurbek jahl bilan boshqalarni uradi, haqorat qiladi. Jamoadoshlari undan qoʻrqadi.

Savollar:

Bu qanday zoʻravonlik turi?

Bu zo‘ravonlikning oqibatlari qanday bo‘lishi mumkin?

3- guruh. Ijtimoiy yakkalash

Vaziyat: Umida so‘nggi paytlarda hech kim bilan so‘zlashmayapti. Qizlar guruhi uni guruhlariga qo‘shmayapti, gaplashishmaydi. U juda yolg‘iz.

4-vaziyat. Gulmira maktabga har kuni xafa bo‘lib kelyapti. O‘gay akasi Sobit unga kun bermayapti. Har ishidan kamchilik topib, Gulmirani xo‘rlaydi. Gulmiraga qanday yordam bersa bo‘ladi? Maktab, oila, mahalla nima qilishi mumkin?

Savollar:

Bu qanday zo‘ravonlik turi?

Bu zo‘ravonlikning oqibatlari qanday bo‘lishi mumkin?

O‘qituvchi:

Ko‘rib turibmizki, zo‘ravonlikka uchragan inson hech qachon xursand yo xotirjam bo‘lmaydi. U ko‘proq qo‘rquv, xafachilik va yolg‘izlikni his qiladi. Shuning uchun biz hamisha bir-birimizga hurmat bilan munosabatda bo‘lishimiz va hech kimni bunday holatga qo‘ymasligimiz zarur.

Guruhlarda ishlash – 2-qism

Har bir guruhga zo‘ravonlikka qarshi o‘zbek xalq maqollari beriladi va muhokama o‘tkaziladi, o‘quvchilarning fikrlari eshitiladi.

O‘qituvchi:

– Siz nima deb o‘ylaysiz, har bir maqol va matalda nimalar haqida so‘z yuritilgan?

1- guruh.

Qo‘li kalta musht ko‘tarar.

Xulosa: aqlli, madaniyatli odam zo‘ravonlik qilmaydi, ojiz inson zo‘ravonlikka murojaat qiladi.

2- Guruh.

Hurmat qilsang, hurmat ko‘rasan.

Xulosa: har bir inson hurmatga loyiq. Zo‘ravonlik hurmatsizlik belgisidir.

3-guruh.

Aql bor yerda urush yo‘q.

Xulosa: aqlli odam zo‘ravonlikka emas, tinchlikka intiladi.

4-guruh.

Janjalni aql to‘xtatadi.

Jahl bilan turgan – zarar bilan o‘tiradi

Xulosa: kechirish, bag‘rikenglik va aql janjalning oldini oladi.

O‘qituvchi:

Bizning jamiyatimizda zo‘ravonlik va shafqatsizlikka murossasizlik bilan yondashish tobora ortib boryapti. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ayni muammoga doir fikrini sizlarga aytib o‘tmoqchiman. Prezidentimiz Parlament saylovidan keyin Oliy Majlis Senatining birinchi majlisida bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka qarshi kurashish masalasini shaxsan nazoratga olishlarini e‘lon qildilar. **“Madaniyatimizga xos bo‘lmagan bunday illatlarga qarshi murossasiz munosabatda bo‘lishimiz va ayovsiz kurashishimiz shart”**, – dedi davlatimiz rahbari.

Mamlakatimizda davlat bolalarni zo‘ravonlikdan qat’iy himoya qiladi. Avvalo, qonunlar orqali bolalarning xavfsizligi va huquqlari himoya qilingan. Bundan tashqari, bolalarni zo‘ravonlikdan himoya qilishga qaratilgan tizimlar ham ishlaydi. Shular orasida bugun eng samarali ishlayotgan tashkilotlardan biri **Ijtimoiy himoya milliy agentligidir.**

Ijtimoiy himoya milliy agentligi (IHMA) – 2023-yil 1-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga sifatli ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish hamda uning samarali nazorat tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-82-sonli farmoni bilan tashkil etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi – bu davlat tashkiloti bo‘lib, aholining, ayniqsa ijtimoiy himoyaga

muhtoj shaxslar, bolalar, yoshlar, nogironligi bor shaxslar va kam ta'minlangan oilalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish bilan shug'ullanadi. Agentlikning asosiy vazifalardan biri bolalar huquqlarini himoya qilish va zo'ravonlikka duch kelgan bolalar uchun xizmatlar tashkil etishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-moddasida "Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir. Hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emas. Hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emas" deb belgilab qo'yilgan. Demak, hech kim boshqani haqorat qilishga, kamsitishga yoki zo'ravonlik qilishga haqli emas.

Zo'ravonlik – nafaqat qonun oldida, balki odamiylik oldida ham jinoyat. Biz jamiyatimizda tinchlik, bag'rikenglik va hamjihatlikni mustahkamlash uchun avvalo o'zimizni yaxshi tomonga o'zgartirishimiz kerak. Madaniyatli odam hech qachon, hech kimga zo'ravonlik qilmaydi.

Yodingizda bo'lsin: zo'ravonlikni yengish uchun eng katta kuch – bu mehribonlik va yordam so'rashdir. Bunday vaziyatlarda mehribonlik ko'rsatadigan tashkilot bu – **Ijtimoiy himoya milliy agentligi.**

Shuningdek, agar siz zo'ravonlikka uchrasangiz yoki kimdir zo'ravonlikka uchrayotganiga guvoh bo'lsangiz, quyidagi joylarga murojaat qilishingiz mumkin:

1. Ishonch telefonlari

O'zbekistonda bolalar va yoshlar uchun maxsus ishonch telefonlari bor:

1146 –“Bolalarni himoya qilish” ishonch telefoni

Bu telefon raqami orqali bolalar, yoshlar, ota-onalar va pedagoglar bepul murojaat qilishi mumkin.

Ish faoliyati davomida mutaxassislar (psixologlar, yuristlar va ijtimoiy xodimlar) tomonidan yordam ko'rsatiladi.

Murojaatlar anonim ravishda qabul qilinadi – ya'ni shaxsiy ma'lumotlar so'ralmaydi.

2. Ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha Inson markazlariga

Bolalar, o‘quvchilar yoki yoshlar zo‘ravonlikka duch kelganda yoki guvoh bo‘lganda, markaz orqali bu haqida xabar berish mumkin.

Inson markazdagi mutaxassislar (psixolog, yurist, ijtimoiy xodim) jabrlanuvchi bilan suhbat o‘tkazib, kerakli yordamni tashkil qiladi.

3. Mahalladagi ijtimoiy xodimga – bu mahalla fuqarolar yig‘inida faoliyat yurituvchi ijtimoiy himoya milliy agentligining mutaxassisidir

Ijtimoiy xodim bu ma’lumotni sir saqlaydi va bolaning xavfsizligini ta’minlaydi.

Agar o‘quvchi qo‘rqqan yoki o‘zi murojaat qilishga ikkilansa, ijtimoiy xodim uning nomidan tegishli idoralarga xabar berishi mumkin.

4. Ota-onalar, qarindoshlar, yaqin insonlarga

Ota-ona yoki yaqin insonlar bolani tinchlantirish, himoya qilish va tegishli tashkilotlarga murojaat etishda yordam beradi.

5. Ishonchli do‘st yoki sinfdoshlar orqali kattalarga xabar berish

Do‘st yoki sinfdosh bu ma’lumotni sir saqlagan holda, kattalarga (sinf rahbari, maktab psixologi yoki ijtimoiy xodimga) etkazishi mumkin.


6. Ishonchli o‘qituvchiga, sinf rahbariga, maktab rahbariyatiga aytish.

O‘qituvchi bu holatni jiddiy qabul qilib, bolani himoya qilish uchun maktab rahbariyati, mahalla yoki “Inson” markazi bilan bog‘lanadi.

7. Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga

Bu organlar jinoyat holatlarini tekshirish, zo‘ravonni javobgarlikka tortish va jabrlanuvchini himoya qilish bilan shug‘ullanadi.

Yuqoridagi barcha tashkilotlar va shaxslar Ijtimoiy himoya milliy agentligi tizimiga bog‘langan va uning qo‘llab-quvvatlash xizmatlari orqali amalga oshiriladi.



Ushbu diagrammada siz Ijtimoiy himoya milliy agentligi qanday holatlarda qay tarzda yordam berishini ko'rib turibsiz. Keling endi ushbu tizim real hayotda qanday ishlashini ko'rsatuvchi rolikni tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Ijtimoiy himoya manzillari bo'ylab sayohat

https://youtu.be/Y3VyZKi5V_A

O'qituvchi:

Qadrli bolalar! Ijtimoiy himoya milliy agentligi bugungi kundan ko'plab bolalarning hayotini yaxshi tomonga o'zgartiruvchi loyihalarni amalga oshiryapti. Masalan, nogironligi bo'lgan yoki alohida e'tibor va parvarishga muhtoj bolalar orasida ham iste'dodli tengdoshlaringiz ko'p. Ijtimoiy himoya milliy agentligi ularning iste'dodi ro'yobga chiqishi uchun ko'p ishlarni qilyapti. Hozir shunday iste'dodli bolalardan biri Zafina Salomova degan tengdoshingizning yutuqlari haqida videorolikni tomosha qilamiz. Rolik orqali Agentlikning bolalarga berayotgan real yordamini ko'rishingiz mumkin.

Vizual kontent

“Men maktabimni juda ham yaxshi ko‘raman” – Zafina Salomova

<https://youtu.be/JRVUOAqa-xM>

3. Yakuniy qism (10 daqiqa)

O‘qituvchi:

Aziz o‘quvchilar!

Bugun biz juda muhim mavzuda – zo‘ravonlik va uning oqibatlari haqida gaplashdik. Zo‘ravonlik nafaqat jismoniy, balki ruhiy zarar ham yetkazadi. U maktabda, uyda, internetda – hamma joyda yuz berishi mumkin.

Eslab qoling, agar siz yoki tanishingiz zo‘ravonlikka duch kelayotgan bo‘lsa, sukut saqlash kerak emas. Ishonchli odamlarga murojaat qilish – birinchi va muhim qadamdir.

Hurmat, bag‘rikenglik va muhabbat – biz birga tinch, xavfsiz va do‘stona muhit yaratishimiz uchun asosiy qadriyatlardir.

“Biz zo‘ravonlikka qarshimiz” daraxti

Biz sinfimizda, maktabimizda hamma bolalar ahil bo‘lishini istaymiz. Shunday ekan, kelinglar, bugungi darsimizda sinfimizning zo‘ravonlikka qarshi qaratilgan deklaratsiyasini yaratamiz.

Mana bu qoidalarni o‘qib chiqing. Qani, birgalikda baland ovozda o‘qiymiz:

- 1. Biz uchun har bir o‘quvchi birdek muhimdir!**
- 2. Maktabda har bir bola hurmat qilinadi.**
- 3. Zo‘ravonlikning hech bir ko‘rinishiga e‘tiborsiz bo‘lmaymiz va unga qarshi turishga tayyormiz!**
- 4. Bizning sinfda hech kim zo‘ravonlik qilmaydi.**
- 5. Bizning maktabimizda har bir o‘quvchi o‘zini qulay his qilsin.**
- 6. Biz bullingga qarshi turamiz va ustozlarning yordamiga ishonamiz.**
- 7. Biz ahil bo‘lsak, barcha maqsadlarimizga erishamiz!**

Rahmat!

Qo‘shilasizmi? Ovozga qo‘yaman. Kim qabul qilamiz desa, qo‘l ko‘tarsin. Qarshilar yo‘q. Betaraflar yo‘q. Qabul qilindi. Barakalla!

Hurmatli o‘quvchilar! Bu qoidalarni “Ahil bolalar deklaratsiyasi” deb ataymiz. Ularni sinfimiz devoriga osib qo‘yamiz. Eng muhimi – ularga amal qilamiz. Xo‘pmi?!

Bugungi darsimizni yakunlar ekanmiz, men sizlarga “Axloqning oltin qoidasi”ni eslataman: **“Sizga qanday munosabatda bo‘lishlarini istasangiz, o‘zingiz ham boshqalarga ham shunday munosabatda bo‘ling!”**

Shu bilan darsimiz tugadi.

Sog‘ bo‘linglar!